

Yondosh mavzu:
rassomlar.

Koordinata burchagi,
koordinata, nuqta.



1. Amallarni bajaring va bir xil qiymatli ifodalarni tanlab oling. Ushbu suratlar mualliflarini toping.




Yulduzli tun
 $34 \cdot 56 + 271$

Ivan Shishkin
3 768



Qarag'ayzor
 $5\,000 - 56 \cdot 22$

Leonardo da Vinchi
6 672



Mona Liza
 $40\,200 : 6 - 28$

Vinsent Van Gog
2 175



2. Tenglamalarni soddalashtiring va ularni tekshirmasdan yeching.

$$x + 18 = 23 \cdot 2 - 22$$

$$y - 23 = 45 \cdot 8 - 200$$

O'ng yoki chap tomonida bir nechta amal ishtirok etgan tenglama tarkibli tenglama deb ataladi.

Misol: $2 \cdot (x - 4) = 28$

$$50 - x : 4 = 400 : 80$$

Agar tenglamaning chap yoki o'ng tomonida sonli ifoda turgan bo'lsa, ularni hisoblash kerak.



Chap tomonda bir nechta amal turgan bo'lsa:

- 1) noma'lum o'rnida son turibdi, deb tasavvur qiling;
- 2) chap tomondagi amallar tartibini ko'rsating;
- 3) oxirgi amaldan qutulish bilan tenglamani yeching.

Misol:



$$\begin{aligned} 8\,000 - x \cdot 15 &= 2\,990 \\ x \cdot 15 &= 8\,000 - 2\,990 \\ x \cdot 15 &= 5\,010 \\ x &= 5\,010 : 15 \\ x &= 34 \end{aligned}$$

Avval oxirgi – ikkinchi amaldan qutulamiz.

3. Amallar tartibini aniqlang va oxirgi amalning qaysiligini ayting.

$a : 14 - 45$

$36 \cdot d + 18 \cdot 4$

$(m - 12) + 3 \cdot 6$

4. Tenglamalarni tekshirishlar bilan yeching.

$(y - 8) \cdot 4 = 72$

$(24 + m) : 9 = 15$

$3 \cdot x + 16 = 61$

$k : 5 + 8 = 12$

5. Tenglamalar yozing.

a) Agar x va 178 sonlarini 8 ga ko'paytirsak, 2808 soni hosil bo'ladi.


b) Agar 650 va y sonlari bo'linmasiga 438 sonini qo'shsak, 488 soni hosil bo'ladi.

6. Aziza bir sonni o'yladi. Unga 1980 sonini qo'shdi. Chiqqan natijani 4 ga bo'lgan edi, 566 soni hosil bo'ldi. U qanday sonni o'ylagan?



7. Amallarni sxema bo'yicha bajaring. Rassomning familiyasini toping.

x	0	3	5	10	12	14
y						
	B	V	E	K	N	O



y	184	284	424	384	98	244
---	-----	-----	-----	-----	----	-----



8. Qulay usulda hisoblang.

$$85 + 85 + 85 + 85 + 85 + 85 + 85 + 85 + 85 + 85$$

$$118 + 38\,895 + 1\,105 + 2\,882$$

$$2 \cdot (2\,994 \cdot 5) \cdot 4 \cdot 25$$

$$2\,889 \cdot 25 + 2\,889 \cdot 75$$



9. Qutida 7 ta qizil, 5 ta ko'k rangli bo'yoq idishi bor. Birdaniga 3 ta qizil bo'yoq idishi chiqishi uchun, qaramay qutidan nechta idishni olish kerak?



10. Tenglamalarni tekshirishlar bilan yeching.

$$(x + 277) : 3 = 114$$

$$720 : (x - 67) = 80$$



11. Rassom suratni dekabr va yanvar oylarida chizdi. U dekabr oyida har kuni 4 h 30 min ishladi, yanvarda esa bundan 1 h 40 min ko'p vaqt ishladi. U suratni chizib tugatish uchun jami qancha vaqt sarfladi? Bu necha kun, necha soat va necha minut bo'ladi?